



Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Psixologiya (Ijtimoiy psixologiya) magistratura mutaxassisligi II bosqich talabasi

e-mail: dy25021998@icloud.com

AKKULTURATSIYA JARAYONIDA TALABA YOSHLARDA QADRIYATLAR TIZIMINING ETNOPSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIGI MASALALARI

Annotatsiya. O'tgan o'n yilliklarda etnik o'ziga xoslik muammolari bo'yicha olib borilgan intensiv tadqiqotlar natijasida psixologiyada nazariy va amaliy butunlay yangi yo'nalish paydo bo'ldi. O'ziga xoslikning shakllanishi va rivojlanishining xususiyatlari, uning funksiyalari, tuzilishi hamda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan elementlarini hisobga oladigan yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Yuqorida keltirilgan omillar hozirgi kun yoshlarini milliy madaniyat va qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash kabi ustuvor vazifalarni jamoatchilik oldiga qo'yimoqda. Maqolada akkulturatziya jarayoni psixologik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinib, talaba yoshlarning qadriyatlar tizimining o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlari doirasida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari havola etiladi.

Tayanch so'zlar: akkulturatziya, qadriyatlar, ideal ustuvorlik, normativ qadriyatlar, shaxs, ijtimoiylashuv, madaniy hodisalar, citch-cover, mustaqillik, gedonizm, konformlik.

Аннотация. В результате интенсивных исследований проблем этнической идентичности в последние десятилетия в психологии появилось совершенно новое теоретическое и практическое направление. Можно выделить подходы, учитывающие особенности формирования и развития личности, ее функции, структуру, элементы, имеющие уникальный характер. Указанные выше факторы ставят перед общественностью первоочередные задачи воспитания лояльности современной молодежи к национальной культуре и ценностям. В статье анализируется процесс аккультурации с психолого-социальной точки зрения, а также представлены результаты исследования, проведенного в рамках специфики этнопсихологических особенностей системы студенческих и молодежных ценностей.

Ключевые слова: аккультурация, ценности, идеальный приоритет, нормативные ценности, личность, социализация, феномены культуры, citch-cover, самостоятельность, гедонизм, конформность.

Annotation. As a result of intensive research on the problems of ethnic identity in the past decades, a completely new theoretical and practical direction has appeared in psychology. It is possible to single out approaches that take into account the characteristics of the formation and development of identity, its functions, structure, elements that have a unique character. Such factors as mentioned above put before the public the priority tasks of educating today's youth to be loyal to national culture and values. The article analyzes the process of acculturation from a psychological and social point of view, and the results of the research carried out within the framework of the specific ethnopsychological features of the value system of young students are presented.

Keywords: acculturation, values, ideal priority, normative values, personality, socialization, cultural phenomena, citch-cover, independence, hedonism, conformity.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida har qaysi mustaqil davlat, har bir millat oldida o'z madaniyati, urf-odati va an'analarini asrab-avaylash, uni o'zidan keyingi avlod vakillariga yetkazish masalasi bilan bir qatorda, o'zga xalq va davlat fuqarolarining qadriyatlariga hurmat bajo keltirish, ularga do'stona munosabatda bo'lish masalasi ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. UNESCOning madaniyatlar xilma-xilligi haqidagi umumiy deklaratsiyasida madaniyat dunyodagi jamiyat va ijtimoiy guruhlariga taalluqli madaniy-moddiy, intellektual-hissiy belgilar yig'indisi sifatida qaralishi, insonlarning hayot tarzi, ularning birgalikda yashash malakasi, qadriyatlar tizimi, an'analari va e'tiqodlarini o'z ichiga olishi zarurligi, har bir madaniyatni hurmat qilish, bag'rikenglik va birdamlik xalqaro tinchlik va xavfsizlik garovi ekanligi ta'kidlangan¹.

Globallashuv hamda virtuallashuv davrida OAV ta'siri yoshlarning yangi madaniyat shakllari bilan tanishishga, o'zga madaniyat vakillari bilan mazmunli va tizimli aloqalarni yo'lga qo'yishga ham zamin yaratmoqda. O'zga madaniyat qadriyatlari bilan yaqindan tanishish barobarida, shaxsda inkulturatsiya jarayonining kechishi nisbatan "sekin" tus olgani berilayotgan statistik ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdi. Yuqorida keltirilgan bu kabi omillar hozirgi kun yoshlarini milliy madaniyat va qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash kabi ustuvor vazifalarni jamoatchilik oldida dolzarblashtirmoqda. Yoshlar nafaqat o'z madaniyati, balki boshqa xalqlarning o'ziga xos jihatlarni o'rganish, o'zga millat va elat vakillari bilan tolerantlik ruhida hamkorlik qilish istagining yuqori ekani sabab ta'lim olishni ko'pincha chet elda davom ettirmoqdalar. Chet ellik talabalar yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarga kirishishda o'zlarining madaniyatlararo moslashuvining muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga ta'sir qiladigan (ijtimoiy, psixologik va ijtimoiy-psixologik xarakterdagi) qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Shuning uchun chet ellik talabalarning madaniyatlararo moslashuvining o'ziga xos xususiyatlariga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni aniqlash hamda bu hodisaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini asoslash masalasi tug'iladi.

¹ UNESCOning madaniyat xilma-xilligi haqidagi umumiy deklaratsiyasi // www.un.org.

Asosiy qism. Madaniyatlararo o'zaro ta'sir jarayoni va uning natijasini ko'rsatishda akkulturatsiya atamasidan foydalanish tavsiya etiladi. Keling, shu o'rinda mazkur atamaning etimologiyasiga nazar tashlasak. "Akkulturatsiya" so'zi ingliz neologizmiga lotincha "add" – "ga, tomon, qo'shmoq" so'zlaridan kirib kelgan bo'lib, "culture" – "yetishtirish, ta'lim, rivojlantirish" degan ma'noni anglatib, "yetishtirish yoki madaniyat bilan tanishish"ga nisbatan qo'llanadi². Mazkur atama turli fanlarda turlicha talqin etilib, madaniyatlararo ta'sir, o'zaro hamkorlik, madaniy muloqot, kross-madaniy o'zaro ta'sir etish shaklini ifodalovchi hodisa sifatida o'rganiladi.

"Akkulturatsiya" so'zi "madaniyat" so'zidan olingani sababli madaniyat tushunchasining mohiyatini aniqlash zarurati tug'iladi. Mohiyat, G.Gegelning fikricha, o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, u o'zida refleksiv, aks ettiruvchi, o'zini ochib beruvchi funksiyalarni bajaradi³.

N.N.Kojevnikovning so'zlariga ko'ra, "mohiyat (narsa) – bu narsaning tub mazmunini, uning muhim xususiyatlarining yig'indisini, mustaqil mavjud bo'lgan mavjudotning substansiyaviy yadrosini tashkil etuvchi mag'izdir"⁴. Y.A.Muravyovning ta'kidlashicha, "madaniyat" so'zi lotincha "ciso" – "yetishtirish", "qayta ishlash" so'zlaridan olingan bo'lib, shuningdek, xuddi shu manbadan kelib chiqqan "kult" so'ziga qaytadi. Etimologik jihatdan lotin tilida "madaniyat" so'zining eng qadimiy manbasi "sphere" fe'li bo'lib, asl ma'noda "o'stirish", "rivojlantirish" ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyingi o'rinlarda "ehtiro", "sajda qilish"⁵ sifatida ham ishlatilgan. Bundan madaniyat asl tub ildizga ega bo'lishi bilan bir qatorda, u azaldan insonning rivojlanishi, takomil topishi uchun xizmat qiladigan vositalar majmuyi sifatida ham aniq, tarixiy ildizga ega, degan xulosaga kelinadi. XVIII asrdan boshlab "madaniyat" atamasi ma'naviy ma'no kasb etib, insoniy fazilatlarining

² Социологическая энциклопедия. // Национальный общественно-научный фонд. Рук. науч. проек. Семигин Г.Ю. – Москва, 2003. – В 2-х тт. – Т. – 694 с.

³ Гегель Г. Наука логики. – Санкт-Петербург, 1997. – 799 с. // <http://ihtik.lib.ru>

⁴ Кожевников Н.Н. От равновесия к равновесию: концептуальный анализ относительных равновесий в природе. – Москва: Мысль, 1997. – 10 с.

⁵ Муравьев Ю.А. Сущность и структура культуры: <http://www.countries.ru>

takomillashuvini bildirib boshladi. Yangi mazmunda madaniyat dastlab metafora ma'nosida, ya'ni dunyoviy jamiyatning yaxshi o'qigan va murakkab odami uni "madaniyatsiz" oddiy odamdan farqlash uchun "madaniyatli odam" deb atala boshlandi.

Akkulturatsiya – madaniyatlarning o'zaro ta'siri, bir millat vakillari tomonidan boshqa etnik jamoa madaniyatini to'liq yoki qisman idrok etish jarayonining natijasi. Shuningdek, akkulturatsiya hukmron etnik jamoaning xulq-atvor normalari, kundalik hayot namunalari hamda madaniyatini qabul qilishni nazarda tutadi. Madaniyatlararo o'zaro muloqot muammosi XIX asr oxiriga kelib tadqiqotchilar e'tiborini torta boshlagan. Akkulturatsiya haqidagi dastlabki tadqiqotlar anglo-sakson madaniyatining hindular va afro-amerikaliklarga ta'sirini o'rganish bilan bog'liq. Bir madaniyat elementlarini boshqasiga o'zlashtirish va o'tkazish jarayonini belgilash uchun "akkulturatsiya" atamasini ikki amerikalik tadqiqotchi, J.Pauell (1880) va U.Xoumzlar birinchi bo'lib qo'llagan. Ushbu atama tor ma'noda assimilyatsiya jarayonini, keng ma'noda esa bosqinchilik, mustamlakachilik va migratsiya davridagi madaniy o'zgarishlar jarayonini izohlash uchun foydalanilgan. Shu jihatdan olib qaralganda, akkulturativ munosabatlarning nafaqat iqtisodiy, siyosiy, balki ijtimoiy, ma'naviy, psixologik tabiatini o'rganish hamda mazkur jarayonning bugungi kun yoshlaridagi barqarorlik, farovonlik ko'rsatkichlariga ta'sirini belgilab beruvchi qadriyatlar tizimini tadqiq etish ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

"Madaniyat" atamasi ingliz etnografiyasi va antropologiyasining asoschilaridan biri E.Taylor tomonidan 1871-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u madaniyatni avlod, tur, kenja turlarga kiradigan va individ hayotini tashkil etuvchi hodisalar majmuyi, deb atagan. E.Taylor madaniyatning mazmun-mohiyatini "bilim, e'tiqod, san'at, axloq, qonunlar, urf-odatlar, shuningdek, shaxs tomonidan jamiyat a'zosi sifatida ega bo'lgan boshqa qobiliyat va malakalarni o'z ichiga olgan majmuyi" deb ta'riflagan⁶. E.Taylor madaniyat hodisalarida zamon va makonda takrorlanadigan narsalarni kashf etdi hamda undan o'tmishning

rekonstruktiv vositasi sifatida foydalandi, keyinchalik bu qiyosiy tarixiy metodning eng muhim momentiga aylanib, tipologik taqqoslash nomini oldi. Madaniyatning barcha hodisalari ichida u asosiy e'tiborni dinga qaratgan. Rossiyada "madaniyat" so'zi birinchi bo'lib N.S.Kirilovning "Xorijiy so'zlarning cho'ntak lug'ati"da qayd etilgan⁷. Ammo u keng qo'llanilmaydi. Keyin madaniyat tushunchasi o'rniga "tarbiya", "ma'rifat", "aql", "ta'lim" so'zlari ishlatilgan. Rus diniy faylasufi N.A.Berdiyayev shunday deb yozgan edi: "Har qanday haqiqiy madaniyatning oliyanobligi madaniyatning ajdodlarga sig'inish, qabr va yodgorliklarni ulug'lash, o'g'illarning otalar bilan bog'lanishi bilan belgilanadi"⁸.

Madaniyat tushunchasining zamonaviy talqini sifatida A.S.Karminning nuqtayi nazarini keltirish mumkin. Unga ko'ra, madaniyat – inson tomonidan yaratilgan "ijtimoiy ma'lumotlar dunyosi (ma'nolari va mazmuni)ni aks ettiruvchi ikkinchi olam"⁹. U subyektivdir, so'z va narsalar tilining moddiy qobig'ida kiyingan holda ijtimoiy voqelikda mavjud bo'ladi. Insoniyatning butun tarixi odamlar o'rtasidagi munosabatlarni: kim-kim, kim-kim bilan, kim-kim uchun, kim-kimga qarshi ekanligini aniqlash bilan o'tgani sababli akkulturatsiya o'zaro ta'sir va o'zaro hamkorlik jarayoni va natijasi sifatida ayon bo'ladi. Turli madaniyatlar ijtimoiy-tarixiy hodisadir. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, akkulturatsiya umuminsoniy xususiyatga ega bo'lgan u yoki bu madaniyatning tashuvchilaridagi xulq-atvor ko'rinishlari, urf-odat, an'analar elementlarini o'zida mujassam etgan global jarayondir.

Akkulturatsiya tushunchasini ilmiy-nazariy asoslashga urinishlar amerikalik etnograflar (Fr.Boas va boshqalar) tomonidan amalga oshirilgan. Akkulturatsiya haqidagi dastlabki nazariy qoidalar avstriyalik sotsiolog va etnolog R.Turnvald (1932) tomonidan ishlab chiqilgan. Uning ta'kidlashicha, "jamiyat qiyofasi odamlarning

⁷ Кирилов Н.С. Карманный словарь иностранных слов, вошедших в состав русского языка. – Санкт-Петербург: Тип. губ. правления, 1845. – Вып. 1. 1845 // <http://www.antiqubook.ru>

⁸ Бердяев Н.А. Философия творчества культуры и искусства. – Москва, 1994. – С. 524-529. <http://www.countries.ru>

⁹ Кармин А.С. Философия культуры в информационном обществе: проблемы и перспективы // Вопросы философии. – 2006. – № 2. – С. 52-60.

⁶ Культура и культурология: словарь / Сост. и ред. А.И. Кравченко. – Москва: Академический Проект; – Екатеринбург: Деловая книга, 2003. – 450 с.

irqiy, nasliy xususiyatlarining tarkibiy qismlari, atrof-muhit ta'siri bilan emas, balki odamlarning bir-birlariga o'zaro ta'siri natijasi bilan belgilanadi"¹⁰. Amerikalik madaniy antropologlar R.Linton, R.Redfild va M.Xerskovitslar 1936-yilda nashr etilgan "Akkulturatsiyani o'rganish bo'yicha memorandum"da "akkulturatsiya" tushunchasining umumiy ta'rifini shakllantirish bilan birga, uni "bir tomonlama" jarayon sifatida tavsiflovchi "akkulturatsiya modeli"ni ishlab chiqqan.

Kundalik hayotda ham ma'lum qadriyat mezonlarining mavjudligi, ham ijtimoiy qadriyatlar, ta'limda shakllantirilgan davlat qadriyatlari, qadriyatlar va ularning tanlovi haqida fikr yuritish, qadriyatlar doimo oqilona bo'ladimi yoki yo'qligini tushunish muhimdir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tadqiqotimiz davomida akkulturatsiya jarayonining bevosita "hosilasi" bo'lishi mumkin deya ta'riflangan shaxsning qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarni tadqiq etuvchi psixodiagnostik vosita sifatida qo'llangan Sh.Shvartsning metodologik qarashlari asosida vujudga kelgan metodikaning tahlilini sharhlash maqsadga muvofiqdir.

Konformlilik qadriyat ko'rsatkichining ideal ustuvorlik darajasi bo'yicha turli millatdagi talaba yoshlarda ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar kuzatilib ($H=100,450$, $p<0,001$), bu etnik xususiyatlarning turfaligi natijasi deb sharhlashimizga imkon beradi. Xususan, mazkur ko'rsatkich bo'yicha rus (306,89) va tojik millatiga mansub talabalarning (99,54) natijalari e'tiborimizni tortdi. Bundan rus millatiga mansub talabalarning boshqa madaniyatga moslashuv jarayonini ta'minlovchi qabul qilish ko'rsatkichi yuqori bo'ladi, degan xulosaga kelinsa, tojik talabalarning an'analar, urf-odatlariga bo'lgan hurmat hissinin yuqoriligi sabab ular o'zga madaniyat, jamoadagi konformlilikni namoyish etish qadriyati past bo'ladi, deyishimiz mumkin. An'analar qadriyatning etnik guruhlar kesimida turlicha o'rinda turishi o'rtasida ham ishonch darajasidagi farqlar kuzatilib ($H=114,868$, $p<0,001$), har bir millat uchun o'z an'analariga sodiq bo'lish, uni ulug'lash va hurmat bajo keltirish muhimligi millat tanlamaydi, degan fikr yuritishga imkon berdi. Rus millatiga mansub talabalarda mustaqillik qadriyatining boshqa

1-jadval

Sh.Shvartsning "Qadriyatlar yo'nalishi" (ideal ustuvorlik darajasi) metodikasining Kraskel-Uollis mezon bo'yicha ko'rsatkichlar tahlili (n=490)

№	Qadriyatlar	Millat vakillarining o'rtacha rang ko'rsatkichlari							Statistik qiymat
		O'zbeklar (n=70)	Qoraqalpolar (n=70)	Ruslar (n=70)	Koreyslar (n=70)	Qozoqlar (n=70)	Qirg'izlar (n=70)	Tojiklar (n=70)	H
1.	Konformlilik	237,67	240,59	306,89	266,05	288,39	279,37	99,54	100,450***
2.	An'analar	214,72	185,64	233,51	242,06	222,48	212,64	407,46	114,868***
3.	Mehribonlik	224,42	240,64	307,85	252,85	279,19	287,12	126,43	75,127***
4.	Universallik	209,11	191,33	222,40	208,44	226,31	233,55	427,36	140,342***
5.	Mustaqillik	222,36	261,23	296,70	257,59	286,31	261,38	132,93	63,582***
6.	Rag'batlantirish	213,66	218,21	219,81	229,30	220,06	208,76	408,70	110,603***
7.	Gedonizm	266,44	288,40	285,69	241,09	271,21	279,19	86,49	108,403***
8.	Yutuqlar	242,81	235,20	281,25	280,13	259,12	257,37	162,61	34,386***
9.	Hokimiyat	255,79	281,36	301,35	227,23	276,69	297,34	78,75	127,264***
10.	Xavfsizlik	254,88	263,86	273,14	229,04	259,05	272,07	166,46	30,436***

Sharh: $p<0,001$ (99,9%) ishonch darajasida farqlar mavjud

¹⁰ Клейн Л.С. Персонализм: Культура и личность // Развитие личности. — 2005. — №2. — С. 163-170. <http://rl-online.ru>.

etnik guruh vakili bo'lgan talabalarga qaraganda yuqori bo'lishi rus millatining etnik-milliy mental xususiyatlaridan kelib chiqib, oilada bola tarbiyasida uni mustaqil qo'yish, xohishlarini erkin ifoda etishiga imkon berish darajasining yuqoriligi natijasi hisoblanadi. Rag'batlantirish qadriyati bo'yicha aksincha – tojik millatidagi talaba-yoshlarda ustunlik kuzatilib (408,70), ushbu talabalarda guruhviy qo'llab-quvvatlash, o'zaro hamkorlik prinsiplarining yuqori bo'lishi rag'batlantirishni ideal ustuvor qadriyat sifatida akkulturationsion jarayonlarga kirishish davomidagi stressli vaziyatlarni va “madaniy shok” hodisasini yengib o'tish “kaliti” sifatida ham rol o'ynashi mumkinligi ma'lum bo'ldi ($H=110,603$, $p<0,001$). Psixologik gedonizm qadriyati bo'yicha yuqori ishonch darajasidagi ustuvorlik qoraqalpoq milatiga mansub talabalarda (288,40) kuzatilgan bo'lib, boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot jarayonida ularda bu har qanday insonning (uning o'zi mafkuraviy gedonist bo'lishidan qat'iy nazar) o'z quvonchlarini oshirish istagi, harakatlar uchun yagona motiv – bu qoniqish istiqbollari va qiyinchiliklardan oson hamda yengil chiqib ketish motivi yuqori bo'lishi aniqlangani holda, bu ularda madaniy moslashish, etnik differentsiatsiyani “pozitiv” idrok qilishlariga ko'maklashadi ($H=108,403$, $p<0,001$).

Yuqorida berilgan normativ qadriyatlar bo'yicha etnik differentsiallikda ham ishonchli va ahamiyatli farqlar kuzatilgan bo'lib, an'analarining tojik millatiga mansub talaba-yoshlarda ustuvorlik kasb etishi (396,03) ulardagi yangi muhit an'analarini, madaniy farqlarni qabul qilish ko'lamining pasayishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi ($H=101,102$, $p<0,001$). Qirg'iz millatiga mansub talabalar kuch, obro'ning jamiyat tomonidan belgilanishining ideal darajada normativ an'ana – “qonun” darajasida ko'rishlari (307,24) mazkur millatga mansub yoshlarning o'qish, ilm olishdan maqsadi katta lavozimlarni egallash motivining yuksak ko'rinishda ekanligidan dalolat beradi ($H=74,687$, $p<0,001$). Mehribonlik qadriyati bo'yicha ham ishonchli farqlar kuzatilib ($H=23,708$, $p<0,001$), koreys millatiga mansub talabalarda mazkur shkala ko'rsatkichi bo'yicha nisbatan pastroq natijalarning kuzatilishi (188,20) ulardagi mehribonlik “ichki” tarafga yo'nalganidan, shuningdek, yangi madaniy muhitda o'z etnik birliklaridagi a'zolarga qayg'urish, qo'llab-quvvatlash me'yor doirasida samimiy asosda bo'lishidan ham ma'lum bo'ladi.

Xavfsizlik qadriyatlar blokining aniq maqsadi – o'zi va boshqa odamlar uchun xavfsizlik, uyg'unlik, jamiyat va munosabatlar barqarorligidir. Bu yerda

2-jadval

Sh.Shvartsning “Qadriyatlar yo'nalishi” (normativ ustuvorlik darajasi) metodikasining Kraskel-Uollis mezon bo'yicha ko'rsatkichlar tahlili (n=490)

№	Qadriyatlar	Millat vakillarining o'rtacha rang ko'rsatkichlari							Statistik qiymat
		O'zbeklar (n=70)	Qoraqalpoqlar (n=70)	Ruslar (n=70)	Koreyslar (n=70)	Qozoqlar (n=70)	Qirg'izlar (n=70)	Tojiklar (n=70)	H
1.	Konformlik	273,06	252,04	288,15	243,97	265,63	267,36	128,29	60,655***
2.	An'analar	192,94	213,39	237,28	243,90	205,36	229,59	396,03	101,102***
3.	Mehribonlik	258,09	260,08	226,82	188,20	233,84	255,79	295,69	23,708***
4.	Universallik	255,44	207,99	205,33	215,33	209,06	226,77	398,59	102,729***
5.	Mustaqillik	248,20	248,14	321,79	252,08	271,02	282,86	94,41	107,855***
6.	Rag'batlantirish	228,26	226,36	227,96	222,13	189,14	214,94	409,71	114,925***
7.	Gedonizm	266,11	281,76	256,00	179,30	237,06	275,27	222,99	26,997***
8.	Yutuqlar	270,56	216,79	187,28	217,06	219,36	257,74	349,71	61,672***
9.	Hokimiyat	216,81	243,59	277,04	271,06	275,86	307,24	126,91	74,687***
10.	Xavfsizlik	204,66	217,19	219,76	240,21	238,56	217,29	380,84	78,778***

Sharh: $p<0,001$ (99.9%) ishonch darajasida farqlar mavjud

muhim qadriyatlar: oila xavfsizligi, ijtimoiy tartib, milliy xavfsizlik, o'zaro yordam, o'zaro munosabat, tozalik, salomatlik va daxldorlik hissi hisoblanib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha ham turli etnik guruh vakillari o'rtasida ahamiyatli farqlar kuzatildi ($H=78,778$, $p<0,001$). Bundan barcha millat vakillari uchun ham xavfsizlik tinchlik ne'matining garovi bo'lib, akkulturratsiya jarayonida o'z xavfsizligini ta'minlashga intilish, madaniy qadriyatlariga sodiqlik ramzi sifatida ham baholanishidan darak beradi.

Bundan tashqari, "konformlilik" va "universallik" qadriyatlar bloklari bo'yicha ko'rsatkichlar etnik guruh vakillari orasida yuqoriroqdir ($H=60,655$, $p<0,001$), ular uchun o'zini himoyalangan his qilish, xavfsiz bo'lish, o'z sog'lig'ini saqlashga intilish muhimroqdir ($H=102,729$, $p<0,001$). Konformlilik salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib keladigan moyilliklarni cheklash talabidan olingan qadriyat bo'lib, bu qadriyat o'z-o'zini tarbiyalash, ota-ona va kattalarga hurmat, xushmuomalalik, jamiyatda hukmron bo'lgan qoida va me'yorlarga rioya qilishni nazarda tutadi. "Saxovat: burch tuyg'usi" va "universallik: bag'rikenglik" qadriyatlarining ahamiyati yoshlar orasida ham yuqoriroq bo'lib, bu ular uchun tanishlar va qarindoshlarning ularga to'liq ishonishi hamda ularga to'liq tayanishi muhimligidan dalolat beradi. Bag'rikenglik bilan bog'liq holda bugungi kunda rus millatiga mansub talabalarda (205,33) turli ozchiliklarga mansub insonlarga nisbatan butunlay boshqacha munosabat hukmronlik qiladi, yoshlar turli odamlar va guruhlariga nisbatan bag'rikeng va mehribonroqdir. Mazkur ko'rsatkichda yuqori natija tojik millatiga mansub talabalarda kuzatilib (398,59), ular turli xil submadaniyatlarga, etnik ozchilikka mansub insonlardan o'zining tub madaniyati haqida boxabar bo'lishga, yangi tajribalar orttirishga intilishining yuqori bo'lishi bilan ham farq qiladi.

Xulosa. Umuman olganda, shuni aytishimiz mumkinki, akkulturratsiya bo'yicha barcha tadqiqotlar u yoki bu tarzda uchta asosiy yo'nalishga ta'sir qiladi: migratsiya sabablari yoki asoslari; ko'chib o'tishning migrantning holatiga ta'siri, shuningdek, migratsiyaning migrantlar kelib chiqishi va migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatga

ta'siri¹¹. Akkulturratsiya – vaqt o'tishi bilan sodir bo'ladigan va madaniyatdagi o'zgarishlar bilan yakunlanadigan jarayon. Madaniy o'zgarishlar, shuningdek, individual o'zgarishlar, agar bir xil subyektlarning ma'lumotlari vaqt o'tishi bilan foydalanilsa, o'rganilishi va baholanishi mumkin. Albatta, bu ideal model bo'lib, amalda bunday taqqoslash madaniyatlararo tadqiqotlarning aksariyat parametrlari uchun haqiqiy emas. Buning o'rniga, ko'plab madaniy xususiyatlarni boshqa manbalardan olish (masalan, ilgari tuzilgan etnografik yozuvlar) yoki qisman turli avlod vakillarining og'zaki ma'lumotlari asosida qayta tiklash odatiy holdir. Migratsiya jarayonida yuzaga keluvchi akkulturratsiya, ayniqsa, immigrant shaxslar hayotida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Immigrantlar ruhiy salomatlik bilan bog'liq bir qancha muammolarga duch kelishi mumkin bo'lsa-da, maslahat, psixologiya va psixiatriya kabi ruhiy salomatlikni tekshiradigan fanlar bu masalaga yetarlicha qiziqish bildirmadi. Immigrantlarning muammolarini aniqlash mezburiy jamiyatga ularning muammolarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Akkulturratsion jarayonlar yoshlarning psixologik holati va ruhiy-barqarorlik darajasiga ta'siri shaxslararo munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Keltirilgan tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, turli millat vakillarining tub qadriyatlarini bilish, madaniyatlararo muloqot qilish orqali ko'nikmasini shakllantirsa, ikkinchi jihatdan akkulturratsiya strategiyalarining normal holatdan baland bo'lishi, shaxsdagi milliy ustuvor qadriyatlar tizimiga "zarar" yetkazishi mumkinligini ham inobatga olish zarur.

¹¹ Zuberi D. In Search of a better life: The experiences of working poor immigrants in Vancouver, Canada / D. Zuberi, M. Ptashnick // International Migration. – 2012. – Vol. 50. – № 1. pp.60-93.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNSECONing madaniyat xilma-xilligi haqidagi umumiy deklaratsiyasi // www.un.org
2. Социологическая энциклопедия // Национальный общественно-научный фонд. Рук. науч. проект. Г.Ю. Семигин. – Москва, 2003. – В 2-х тт. – Т. – 694 с.
3. Гегель Г. Наука логики. – Санкт-Петербург, 1997. – 799 с. // <http://ihtik.lib.ru>
4. Кожевников Н.Н. От равновесия к равновесию: концептуальный анализ относительных равновесий в природе. – Москва: Мысль, 1997. – 10 с.
5. Муравьев Ю.А. Сущность и структура культуры: <http://www.countries.ru>
6. Культура и культурология: словарь / Сост. и ред. А.И. Кравченко. – Москва: Академический Проект; – Екатеринбург: Деловая книга, 2003. – 450 с.
7. Кирилов Н.С. Карманный словарь иностранных слов, вошедших в состав русского языка. – Санкт-Петербург: Тип. губ. правления, 1845. – Вып. 1. 1845 // <http://www.antiqubook.ru>
8. Бердяев Н.А. Философия творчества культуры и искусства. – Москва, 1994. – С. 524-529. // <http://www.countries.ru>
9. Кармин А.С. Философия культуры в информационном обществе: проблемы и перспективы // Вопросы философии. – 2006. – № 2. – С. 52- 60.
10. Клейн Л.С. Персонализм: Культура и личность // Развитие личности. – 2005. – № 2. – С. 163-170. // <http://rl-online.ru>.
11. Zuberi D. In Search of a better life: The experiences of working poor immigrants in Vancouver, Canada / D. Zuberi, M. Ptashnick // International Migration. – 2012. – Vol. 50. – № 1. pp.60-93